



IJTIMOIIY SOHADAGI ISLOHOTLAR VA AHOLINI QO‘LLAB- QUVVATLASH

To‘rayev Abduvohid Qo‘ldoshevichning
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası assistenti
Jamilov Firdavs Otabek o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Iqtisodiyot” fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar va aholining turli qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda aholini ijtimoiy himoya qilish, ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini yangilash, uy-joy bilan ta‘minlash hamda bandlikni oshirishga qaratilgan dastur va mexanizmlarning amaliy samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ijtimoiy siyosatning mavjud muammolari, moliyaviy va institutsional cheklovlar, tizimlararo integratsiya darajasi baholanadi. Olingan natijalar ijtimoiy barqarorlikni kuchaytirish, aholining turmush sifatini oshirish hamda islohotlarning davomiyligini ta‘minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqishda ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Kalit so‘zlar. Ijtimoiylik, islohot, qo‘llab-quvvatlash, farovonlik, himoya, ta‘lim, sog‘liq, bandlik, tenglik, barqarorlik, siyosat, xizmatlar, rivojlanish, inklyuziya, modernizatsiya, barqarorlik, strategiya, integratsiya.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston jamiyat hayotida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, avvalo, ijtimoiy sohaning har bir yo‘nalishida sezilmoqda. Davlatning asosiy maqsadi aholi turmush sifatini yaxshilash, inson kapitalini rivojlantirish va fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta‘minlash, endi nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarda, balki oddiy insonlarning kundalik hayotida ham yaqqol namoyon



bo‘la boshladi. Shu bois ijtimoiy sohani isloh qilish masalasi bugungi kunda eng dolzarb va uzoq muddatli ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Hozirgi kunda ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, tibbiy xizmatlarning bosqichma-bosqich yaxshilanayotgani, ijtimoiy himoya tizimining aniq maqsadli mexanizmlar asosida qayta ko‘rib chiqilishi, nogironligi bo‘lgan shaxslar, yoshlar va ayollar uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishi aholining turli qatlamlaridagi ehtiyojlarga javob berishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, uy-joy dasturlarining kengaytirilishi, “temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari” kabi mexanizmlarning joriy etilishi bevosita oila farovonligini oshirish va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning yangi bosqichini yuzaga keltirdi.

Mazkur maqolada ana shu islohotlarning mazmuni, ularning aholi hayotidagi real ta’siri, mavjud muammolar hamda ijtimoiy siyosatni yanada takomillashtirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini baholash, aholini qo‘llab-quvvatlash dasturlarining amaliy natijalarini o‘rganish va kelajakda ustuvor bo‘lishi zarur bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlashdan iborat. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, aholining hayot darajasini yuksaltirish va davlat siyosatini takomillashtirishga ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini tubdan modernizatsiyalash muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu yo‘nalishlar nafaqat fuqarolarning hayot sifatini oshirishga, balki inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi.

O‘zbekistonning ta’lim tizimini modernizatsiyalash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar davlat strategiyasining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mamlakatda ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning malakasini rivojlantirish, infratuzilmani zamonaviylashtirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga



qaratilgan. 2024–2026-yillarga mo'ljallangan rejalarda 9 729 ta ta'lim muassasasi rahbarlari va mutaxassislari malaka oshirish kurslarida ishtirok etgan, o'qituvchilar uchun rag'batlantirish tizimi, bonuslar va chekka hududlardagi qo'shimcha to'lovlar joriy etilgan. O'quv dasturlari zamonaviy metodologiyalar, kompetentsiyalar, masalan, tanqidiy fikrlash, texnologik bilimlar va xorijiy tillarni o'z ichiga olgan holda qayta tuzilgan, shuningdek, maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish, elektron darsliklar va raqamli baholash tizimlarini tatbiq etish orqali ta'lim jarayoni interaktiv va samarali shaklga keltirilmoqda. Shu bilan birga, pedagogik oliy ta'lim muassasalari reorganizatsiya qilinib, o'qituvchilarni tayyorlash markazlari tashkil etilgan va ta'lim jarayonida amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu islohotlarning natijasi sifatida ta'limdagi tengsizlik kamayishi, maktabgacha ta'limga kirish oshishi, oliy ta'limda sifatli bilim oluvchi yoshlar soni ko'payishi va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi kutilmoqda, bu esa mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiyalash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni kengaytirish, birlamchi tibbiy yordamni mustahkamlash va tizimni raqamlashtirishga qaratilgan. 2025-yil 19-mayda imzolangan PF-88 farmoni bilan tuman va shahar sog'liqni saqlash bo'limlarini modernizatsiya qilish, oilaviy shifokorlar ulushini 70% ga yetkazish va raqamli tizimlar orqali ma'muriy yukni 30% ga kamaytirish belgilangan. Bu farmon doirasida qog'ozbozlikni kamaytirish, elektron ma'lumotlar bazalarini yaratish va tibbiy xizmat sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Sog'liqni saqlash infratuzilmasi kengaytirilmoqda: qishloq tibbiyot punktlari, oilaviy poliklinikalar va shahar markaziy shifoxonalari tashkil etilib, hududlararo tibbiy xizmatga kirish imkoniyati oshirilmoqda. Shuningdek, tibbiyot kadrlarini tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha kurslar tashkil etilgan, raqamlashtirilgan nazorat tizimlari orqali xizmatlarning shaffofligi va samaradorligi oshirilmoqda.



WHO(Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti) baholashlariga koʻra, bu islohotlar birlamchi tibbiy yordamni mustahkamlash, moliyalashtirishni takomillashtirish va e-health tizimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mahalliy darajada esa misollar sifatida, Jizzax viloyatidagi Gʻallaorol tumani sogʻliqni saqlash boʻlimi oilaviy poliklinikalar va markaziy shifoxona faoliyatini integratsiyalash orqali tibbiy xizmat sifatini oshirgan. Shu bilan birga, profilaktik tibbiyotga eʼtibor qaratilib, kasalliklarning oldini olish va reabilitatsiya xizmatlari kengaytirildi, jumladan nogironlar va nogironligi boʻlgan bolalar uchun moslashtirilgan xizmatlar, protez va reabilitatsiya vositalari yetkazib berilishi tizimi kuchaytirildi.

Oʻzbekistonda aholini uy-joy bilan taʼminlash siyosati ijtimoiy himoya tizimining muhim ustunlaridan biri sifatida shakllantirilgan va bu yoʻnalishda bir nechta qonuniy va iqtisodiy chora-tadbirlar joriy etilgan. Past daromadli oilalar uchun qulay ipoteka kreditlari taqdim etilib, ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarga ijaraga beriladigan uy-joylar uchun maxsus jamgʻarmalar tashkil etilgan. Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi tomonidan 2023-yilda mamlakatda 68,1 trillion soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlsa, 2024-yilda esa birinchi chorakda 31,1 trillion soʻmlik uy-joy qurilishi amalga oshirilgan. Shuningdek, harbiy xizmatchilar va IIV profilaktika inspektorlari uchun davlat tomonidan uy-joy bilan taʼminlash dasturlari bor, masalan, 2021–2024-yillar davomida 2 965 ta xizmat uylari qurilishi yoki taʼmiri rejalashtirilgan. Bu siyosat nafaqat ijtimoiy xavf darajasini kamaytirishga, balki qurilish sektorini ragʻbatlantirish orqali iqtisodiy oʻsishga ham turtki bermoqda va yangi uy-joy bozori hamda infratuzilma loyihalarini rivojlantirishga imkon yaratmoqda.

Oʻzbekiston bandlik va ish oʻrinlarini yaratish yoʻnalishida ham ijtimoiy siyosatni faol shakllantirmoqda. 2025-yil uchinchi choragida ishsizlik darajasi 4,9 % ga tushdi, bu 2024-yilga nisbatan 0,8 foiz punktga kamaygan. Ishlab chiqarishda, savdo-xizmat koʻrsatishda va investitsiya loyihalarida yangi bandlik imkoniyatlari yaratilib, 2025-yilda 4,45 million kishi daromad manbalariga ega boʻlishi



ta'minlangan, xususan, 1,29 million kishi qishloq xo'jaligida, 2,74 million kishi xizmatlar sohasida va 256,200 kishi investitsiya loyihalarida ish topgan. Shu bilan birga, formal sektorni kengaytirish strategiyasi doirasida 8,58 million kishi rasmiy bandda ishlaydi, 4,38 million kishi esa norasmiy sektorda mehnat qilmoqda, ammo tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mehnat bozorining yarmi atrofida noformal ishlayotganlar mavjud.

Yoshlar, ayollar va nogiron shaxslar uchun maxsus dasturlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining o'ziga xos yo'nalishi sifatida ilgari surilmoqda. 16–24 yoshdagi yoshlar qismi katta bo'lib, ayrim ma'lumotlarda bu guruhda 24% atrofida ekanligi qayd etilgan. Rivojlanayotgan ijtimoiy himoya modelida nogironligi bo'lgan va parvarish talab qiladigan shaxslarga individual xizmatlar ko'rsatiladi va raqamli registr orqali ularning ehtiyojlari doimiy nazorat qilinadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayollar va nogironlarda bandlik darajasi va iqtisodiy faollik gender va nogironlik holatlariga qarab sezilarli farq qiladi, bu esa davlat siyosatida integratsiyalashgan qo'llab-quvvatlash choralari joriy etishni talab qiladi.

O'zbekistonda aholini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari keng qamrovli va kompleks tizim sifatida shakllantirilgan bo'lib, bunda ijtimoiy nafaqalar va subsidiyalardan tortib, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturlari, mehnat bozorini rivojlantirish, ish o'rinlarini yaratish, sog'liqni saqlash va ta'lim orqali yordam ko'rsatish hamda maxsus ehtiyojli guruhlar uchun individual dasturlar mavjud. Ijtimoiy nafaqalar tizimi pensiya, nogironlik va boshqa ijtimoiy to'lovlarni o'z ichiga olib, aholining daromadlarini barqarorlashtirish va kambag'allikni kamaytirishga xizmat qiladi, shu jumladan energiya, gaz va kommunal xizmatlar bo'yicha subsidiyalar orqali kam ta'minlangan oilalarning xarajatlari kamaytiriladi. Kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturlari esa oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur resurslar bilan yordam berish, mikrokreditlar va ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish orqali ularning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini oshiradi, shuningdek, bolalarni maktabga tayyorlash va sog'liqni saqlash xizmatlariga



kirishni ta'minlash orqali oilaning integratsiyasini kuchaytiradi. Mehnat bozorini rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholining daromad manbalariga kirish imkoniyati oshiriladi; 2025-yilda 4,45 million kishi bandlikka ega bo'lib, ular qishloq xo'jaligi, xizmatlar va investitsiya loyihalarida ishlash orqali iqtisodiy faollikka erishdi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida yaratilgan infratuzilmalar, masalan, oilaviy poliklinikalar, qishloq tibbiyot punktlari va maktabgacha ta'lim muassasalari orqali aholi sifatli xizmatlardan foydalanadi va yosh avlodning rivojlanishi ta'minlanadi. Maxsus ehtiyojli guruhlar — nogironlar, yoshlar va ayollar — uchun esa individual dasturlar, kasbiy tayyorgarlik kurslari, mikrokreditlar va reabilitatsiya xizmatlari orqali ularning iqtisodiy va ijtimoiy hayotga integratsiyalashuvi qo'llab-quvvatlanadi. Shu tarzda, aholini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida amalga oshiriladi va mamlakatda ijtimoiy barqarorlik, tenglik va aholining hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy sohadagi islohotlar hayot darajasi va farovonlik ko'rsatkichlarining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. O'rtacha oylik daromad va pensiya miqdori muntazam indeksatsiya qilinib, past daromadli oilalarning xarajatlarini qoplashga xizmat qilmoqda. Mehnat bozorida yaratilgan yangi ish o'rinlari aholining iqtisodiy faolligini oshirishga yordam beradi, shu bilan birga, rasmiy bandlik darajasi 8,5 million kishiga yetkazildi. Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar oilaviy poliklinikalar va qishloq tibbiyot punktlarini kengaytirish orqali aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishga imkon yaratdi. Ta'lim sohasida maktabgacha va maktab ta'limiga kirish darajasi oshdi, yosh avlodning rivojlanish ko'rsatkichlari yaxshilandi. Kommunal xizmatlar va energiya bo'yicha subsidiya tizimi aholining xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Uy-joy bilan ta'minlash dasturlari past daromadli oilalar va harbiy xizmatchilarni qamrab oladi. Shu orqali iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy himoya bir-birini to'ldiruvchi mexanizmga aylanishi kuzatiladi. Ijtimoiy yordamlarning samaradorligi oshirilgani,



farovonlik ko'rsatkichlarining sezilarli darajada yaxshilanganini ko'rsatmoqda. Natijada, aholining umumiy hayot sifati va iqtisodiy barqarorligi oshib, mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy tenglik kuchayishi va aholining turli qatlamlari uchun imkoniyatlar yaratish muhim natija sifatida e'tirof etiladi. Kam ta'minlangan oilalar, nogironlar va yoshlar uchun yaratilgan individual dasturlar orqali turli qatlamlar orasidagi farqlar sezilarli darajada kamaydi. Mikrokreditlar, kasbiy tayyorgarlik kurslari va reabilitatsiya xizmatlari maxsus ehtiyojli guruhlar uchun qo'llanilmoqda. Ayollar va nogironlarning mehnatga kirish imkoniyatlari kengaytirildi, ularning iqtisodiy faolligi oshdi. Hududlararo ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish bo'yicha strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sog'liqni saqlash va ta'lim infratuzilmasi aholi ehtiyojlariga moslashgan holda rivojlantirilmoqda. Ish o'rinlari yaratish orqali yoshlar va ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlar kengaytirildi. Individual yondashuv, ehtiyojlarni aniqlash va dasturlarni moslashtirish ijtimoiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. Aholi turli ijtimoiy qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish orqali adolat va farovonlik kuchaymoqda. Shu bilan birga, tizimning samaradorligi monitoring va baholash orqali doimiy takomillashtirilmoqda.

Mavjud muammolar va kelajak istiqbollari bo'yicha, noformal bandlikning yuqoriligi, qishloq hududlarida xizmatlar va infratuzilmaning yetishmasligi hanz dolzarb masala hisoblanadi. Ba'zi hududlarda uy-joyga kirish imkoniyati cheklangan, ijtimoiy nafaqalar va subsidiyalar hamma qatlamlarga teng yetkazilmaydi. Shu bilan birga, islohotlar samaradorligini oshirish va kelajak istiqbollarini kuchaytirish maqsadida raqamlashtirish tizimini kengaytirish zarur. Malakali kadrlarni tayyorlash va yoshlar, ayollar uchun qo'shimcha iqtisodiy va kasbiy imkoniyatlar yaratish muhimdir. Hududiy tafovutlarni kamaytirish va ijtimoiy xizmatlarni sifat jihatidan yaxshilash istiqbollari mavjud. Innovatsion texnologiyalar orqali xizmat ko'rsatish samaradorligi oshirilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli guruhlar uchun individual yondashuvni kengaytirish tavsiya etiladi.



Monitoring va baholash tizimlari orqali dasturlar samaradorligi muntazam tahlil qilinadi. Shu tarzda mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, aholining turli qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish va uzoq muddatli farovonlikni ta'minlashga erishiladi.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda ijtimoiy sohadagi islohotlar aholining hayot darajasi va farovonligini oshirishga, ijtimoiy tenglikni kuchaytirishga hamda turli qatlamlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda. Uy-joy bilan ta'minlash, bandlikni oshirish, ijtimoiy nafaqalar va subsidiyalar, sog'liqni saqlash va ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish orqali aholi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka erishmoqda. Maxsus ehtiyojli guruhlar, yoshlar, ayollar va nogironlar uchun individual dasturlar amalga oshirilgani mamlakatdagi ijtimoiy himoya tizimini yanada samarali qilmoqda. Shu bilan birga, noformal bandlik, hududlararo tafovutlar va ba'zi qatlamlar uchun yordamning yetarli darajada yetkazilmasligi kabi muammolar mavjud.

Takliflar:

1. Ijtimoiy yordam mexanizmlarini yanada integratsiyalash va raqamlashtirish orqali ularning samaradorligini oshirish.
2. Hududiy tafovutlarni kamaytirish va qishloq hududlarida xizmatlarni kengaytirish.
3. Kam ta'minlangan qatlamlar va maxsus ehtiyojli guruhlar uchun individual dasturlarni kengaytirish va malakali kadrlar tayyorlash.
4. Innovatsion texnologiyalar yordamida ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish va monitoring tizimini mustahkamlash.
5. Yoshlar va ayollar uchun qo'shimcha iqtisodiy va kasbiy imkoniyatlar yaratish, ularning mehnat bozorida ishtirokini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari:



1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni: Mehnat kodeksi, 1995 yil 21 dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni: Eng kam oylik ish haqi va ijtimoiy to‘lovlar to‘g‘risida, 2000 yil 25 may.
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni: Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida, 2019 yil 25 dekabr.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni: To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida, 2022 yil 12 aprel.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 avgustdagi 704-son qarori: “Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi to‘g‘risida NIZOM”.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

8. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatni birgalikda barpo etamiz.* – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016.
9. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.* To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.

IV. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar:

10. Gorfinkelya V.Ya., Shvandar V.A. *Ekonomika predpriyatiya.* Uchebnoe posobie.– M.: YUNITI-DANA, 2008.



11. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik / I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2023.

12. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2022.

13. Ortiqov A. *Sanoat iqtisodiyoti*. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2023.

V. Monografiyalar, avtoreferatlar va ilmiy jurnallar:

14. Shavqiev E. Tadbirkorlik – aholi farovonligini oshirishda asosiy omil. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019.

15. Xolmatov N.B. Milliy sanoatlashtirish jarayoni muammolarini o‘rganishga institutsional yondashuv. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali, №1, 2020.

16. Xamraeva S.N. Qishloq infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017.

VI. Internet saytlar ma’lumotlari:

17. Kun.uz. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining 2024 yil ko‘rsatkichlari.” <https://kun.uz>, 2024.

18. Lex.uz – O‘zbekiston qonun hujjatlari portali. <https://www.lex.uz>.

19. Stat.uz – O‘zbekiston statistika agentligi <https://www.stat.uz>